
Axborotdan foydalanuvchilarning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining ochiq hayat majlislarida hozir bo'lishi tartibi to'g'risidagi namunaviy nizom

Mazkur Namunaviy nizom «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, axborotdan foydalanuvchilarning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining ochiq hayat majlislarida hozir bo'lishi tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasiga asosan, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyatiga to'g'risida axborot izlashni amalga oshirayotgan jismoniy yoki yuridik shaxs axborotdan foydalanuvchi hisoblanadi.

2. Mazkur Namunaviy nizom talablari davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan ochiq hayat majlisida ishtirok etish uchun taklif etilgan shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

3. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari:

mazkur Namunaviy nizom asosida axborotdan foydalanuvchilarning ochiq hayat majlislarida hozir bo'lishi tartibini belgilashi;

ochiq hayat majlislarida axborotdan foydalanuvchilarning hozir bo'lishi uchun sharoitlar yaratishi lozim.

4. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining hayat majlislari ochiq tarzda o'tkaziladi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

5. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari axborotdan foydalanuvchilarning tanishib chiqishlari uchun binoning hamma kirishi mumkin bo'lgan xonalarida va (yoki) maxsus ajratilgan joylarida ochiq hayat majlislarini o'tkazish rejalari, shu jumladan majlislarining kun tartibi loyihalari, ular o'tkaziladigan sana, joy va vaqt hamda boshqa zarur axborotlar axborot stendlari va (yoki) shunday maqsad uchun mo'ljallangan texnik vositalarga majlis o'tkazilishidan kamida uch kun oldin joylashtirishlari shart.

2-bob. Axborotdan foydalanuvchilarning ochiq hayat majlislarida hozir bo'lishi

6. Axborotdan foydalanuvchi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining ochiq hayat majlislarida hozir bo'lish uchun tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvi organiga so'rov bilan murojaat qiladi. So'rov «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 20-moddasida belgilangan talablarga muvofiq rasmiylashtirilishi lozim.

Axborotdan foydalanuvchining identifikatsiyalash imkoniyatini beradigan ma'lumotlar ko'rsatilmagan so'rovlar anonim hisoblanadi va ko'rib chiqilmaydi.

7. So'rov kelib tushgan kuni u tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvi organi tomonidan alohida maxsus jurnalda ro'yxatga olinadi va zudlik bilan ko'rib chiqiladi. Mazkur jurnal hayat majlisiga mas'ul kotibi tomonidan yuritiladi.

8. So'rovga asosan hayat majlisiga mas'ul kotibi axborotdan foydalanuvchini ochiq hayat majlisida ishtirok etuvchilar ro'yxatiga kiritadi hamda bu haqda axborotdan foydalanuvchiga ma'lum qiladi. Ochiq hayat majlisining o'tkazilish sanasi, vaqti yoki joyi o'zgartirilgan taqdirda, bu haqda axborotdan foydalanuvchiga ma'lum qilinadi.

9. Axborotdan foydalanuvchilar ochiq hayat majlisiga shaxsini tasdiqlovchi hujjati asosida kiritiladi.

10. Axborotdan foydalanuvchi ochiq hayat majlisiga kelmagan taqdirda, hayat majlisiga mas'ul kotibi tomonidan bu haqda maxsus jurnalga yozib qo'yiladi.

11. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari o'z imkoniyatlaridan hamda axborotdan foydalanuvchilar sonidan kelib chiqib, ochiq hayat majlisi o'tkaziladigan zalda axborotdan foydalanuvchilar uchun joy tayyorlaydi. Axborotdan foydalanuvchilar ochiq hayat majlisi o'tkaziladigan zalga maxsus jurnalda qayd etish ketma-ketligi asosida joylashtiriladi.

Axborotdan foydalanuvchilar sonining ko'pligi sababli, ularni ochiq hayat majlisi o'tkazilayotgan zalga joylashtirish imkoni bo'lmagan taqdirda, ular ochiq hayat majlisining borishini video tasvir orqali moneliksiz kuzatib borishlari mumkin bo'lgan xonaga joylashtirilishi mumkin.

12. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, axborotdan foydalanuvchilar ochiq hayat majlisining borishini video tasvir orqali moneliksiz kuzatib borishlari mumkin bo'lgan alohida xona jihozlab qo'yilishi mumkin.

13. Axborotdan foydalanuvchilar ochiq hayat majlisi boshlangunga qadar belgilangan joyga yetib kelishi, ro'yxatdan o'tishi va belgilangan joyga o'tirishi lozim. Axborotdan foydalanuvchilar raislik qiluvchi tomonidan majlis boshlanganligi e'lon qilingandan so'ng kelgan taqdirda, kechikib kelgan hisoblanadi va hayat majlisiga qo'yilmaydi.

14. Axborotdan foydalanuvchi tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvi organi tomonidan tasdiqlangan ochiq hayat majlisining reglamentida belgilangan tartibda majlisda hayat majlisiga mas'ul kotibi tomonidan

bilan murojaat qilish huquqiga ega.

15. Axborotdan foydalanuvchi tomonidan hay'at majlislari davomida hay'at majlisi muhokamasiga taalluqli bo'lmagan va ushbu majlisda muhokama qilinmagan masalalar bo'yicha fikr-mulohazalar bildirilgan yoki savollar bilan murojaat etilgan taqdirda, unga mazkur masala bo'yicha axborot olish tartibi tushuntiriladi.

16. Axborotdan foydalanuvchi hay'at majlisi o'tkazilayotgan vaqtda tartibni buzmasligi shart. Axborotdan foydalanuvchi majlis o'tkazilayotgan vaqtda tartibni buzgan taqdirda, raislik qiluvchi tomonidan ogohlantiriladi.

Axborotdan foydalanuvchi tartibni takroran buzgan taqdirda, u raislik qiluvchi tomonidan majlis o'tkazilayotgan zaldan chiqarib yuboriladi. Mazkur holat yuzasidan hay'at mas'ul kotibi dalolatnoma tuzadi va dalolatnoma raislik qiluvchi tomonidan imzolanadi.

17. Axborotdan foydalanuvchilarga ochiq hay'at majlisini fotosuratga, video tasvirga olishga, ovoz yozish vositalaridan foydalanishga ruxsat berilmaydi.

18. Hay'at majlisi bayonnomasida ochiq hay'at majlislarida hozir bo'lgan axborotdan foydalanuvchilarning ishtiroki haqida tegishli ma'lumotlar ko'rsatilishi lozim.

3-bob. Yakuniy qoida

19. Mazkur Namunaviy nizom O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi hamda Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti bilan kelishilgan.

Manba: LEX.UZ

2017-07-28 13:30:55